

**YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH
MEXANIZMINING NAZARIY ASOSLARI**

Usmonov Shavkatjon Shukurovich

Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Iqtisodiy fanlar” kafedrasi katta o’qituvchisi

E-mail: shavkatjonusmonov3007@gmail.com

Jahon" yashil " iqtisodiyotining ko'lami hali nisbatan kichik, jahon yalpi ichki mahsulotining atigi 2,7% -3%, bunday investitsiyalardan olingan foyda taxminan 1,5 milliard dollarni, bandlik 10 millionga yaqin kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkichlar Buyuk Britaniya, AQSh, Germaniya va Yaponiyada sezilarli darajada yuqori. Ushbu mamlakatlar investitsiyalarning asosiy qismini yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilinishi ham beziz emas. Davlat rahbarining ta'kidlashicha, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziysi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bugungi iqlim o'zgarishlari sharoitida hududlarda yashil iqtisodiyot bilan bog'liq zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish loyihamini moliyalashtiruvchi xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa "donor" tashkilotlarning mablag'larini yo'naltirish orqali loyihamini moliyalashtirishga oid ishlar amalga oshirilmoqda.

"Yashil" iqtisodiyotning sektori sifatida "yashil" energetikani ta'minlashda "yashil" moliyalashtirishni o'rni juda katta. "Yashil" hamda "Moliya" tushunchalarning birikmasi yangi ma'noda o'z aksini topmoqda. "Yashil moliya"

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

haqida to'liq tushuncha beradigan yagona kelishilgan ta'rif shakllantirilimagan. Hozirgi kunda "Yashil" atamasi qo'shiladigan sohalar rivojlanmoqda va "yashil moliya" shular jumlasidandir.

Amerika, Evropa va Islom mamlakatlarida "Yashil" rang tabiat, hayot, sog'liq, yoshlik, bahor, umid bilan eng ko'p bog'liq bo'lgan rangdir.¹ "Yashil" - hayot rangi, tabiat va ekologiya, atrof-muhit, uyg'unlik va muvozanat ramzidir. Bu rang bahor kabi qaytadan yaralish bilan bog'liq bo'lib, hamma narsa jonlanadi va dunyo yangilanadi. Moliya esa "Davlatning o'z funksiya va vazifalarini bajarish maqsadida markazlashgan va markazlashmagan pul fondlarining shakllantirilishi, taqsimlanilishi va foydalanimishini ifodalovchi iqtisodiy munosabatlar majmuidir"².

Iqtisodiyotni energetika sektorini o'zi ko'p segmentli huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga muhtoj, bu professor V. V. Romanova tomonidan ilmiy va o'quv nashrlarida yoritilgan. Bu shuni anglatadiki, dasturiy ilmiy-huquqiy ishlanmalar asosida tegishli "yashil" huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va samaradorligini oshirish talab etiladi³. Shuni yodda tutish kerakki, bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga "yashil" energiya almashinuvi muammosini hal qilishda, uning muhim maqsadi insonning ekologik va iqlim huquqlariga riosa etilishini ta'minlashdir.

"Yashil" moliyalashtirish"ni ilmiy-huquqiy qo'llab-quvvatlash K. G. Musailov, B. N. Porfiriev, V. V. Arxipova, A. I. Nisittseva, S.I.Mishulina, S.M.Nikonorov, S.N.Bobylev, Yu.V.Yevdokimova, A.A.Tatueva va boshqalarning ilmiy ishlarida asoslangan.

Yashil iqtisodiyotning bir qismi sifatida yashil moliyanı ko'rildi, unda moliya ekotizimning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Bunday holda, ikki turdag'i kapital - tabiiy va moliyaviy o'rtasida o'zaro ta'sir mavjud. Bu mavzu kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi, chunki moliyaviy g'oyalar ekologik g'oyalar bilan chambarchas bog'liq deb hisoblanadi. Yashil moliya yondashuvi atrof-muhitga investitsiyalar, soliqlar, tariflar va to'lovlarni, ifloslanishni cheklash va ekotizimlarni tiklash uchun

¹ Heller, Eva (2009). Psychologie de la couleur – Effets et symboliques. Pyramyd (French translation). ISBN 978-2-35017-156-2. Pp 87-104.

² Safarov B.Sh., Ayubov I.I. Moliya va soliqlar //Darslik//. -T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2020. 512 b.

³ Романова В.В. Энергетическое право: учебник для подготовки кадров высшей квалификации / В.В.Романова. М: Юрист, 2021. 288c

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mablag'larni yaratish, toza texnologiyalar uchun subsidiyalar, sug'urta va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.

Biroq, yashil moliyani tushunish uchta soha - tabiat, iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning o'zaro ta'siri va o'zaro ta'sirini hisobga oladigan kompleks yondashuvni talab qiladi. "Yashil" moliya kontekstida pul kapitali va moliyaviy madaniyat bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning faqat bir qismi ko'rib chiqiladi, shuningdek, pul shaklida baholanadi va tabiiy kapital shaklida kapitalning boshqa shakllari bilan o'zaro ta'sir qiladi⁴.

"Yashil moliya" atamasi birinchi marta amerikalik iqtisodchi Richard Sandor tomonidan 1992 yilda Kolumbiya universitetida dars bergen kursning bir qismi sifatida kiritilgan. Uning kontseptsiyasiga ko'ra, yashil moliya - bu iqlim o'zgarishining oldini olishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish hisoblanadi. Ushbu moliyaviy vositalar issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish va yanada barqaror va yashil iqtisodiy o'sishga o'tishni qo'llab-quvvatlashda asosiy rol o'ynashi mumkin. U ekologik barqaror investitsiyalarga yo'naltirilgan moliyaviy resurslar hajmini ko'paytirish maqsadiga mos keladi.

1992 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferensiyasida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) moliyaviy tashabbusining kiritilishi yashil moliyani rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi. Yashil moliya yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yoki yashil o'tishni osonlashtirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish uchun yondashuv hisoblanadi. Yashil moliya yashil o'tishni amalga oshirishda moliyaviy mexanizmlarning ahamiyati va uning iqlim ta'sirini yumshatishdagi muhim roli Parij kelishuvining "2.1 c" moddasida e'tirof etilgan.⁵

1-jadval.

Yashil moliya qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi.

Manbalar	Tariflar
----------	----------

⁴ Зеленая экономика и зеленые финансы: учебное пособие [Порфириев Б.Н. и др.] / Под ред. акад. Б.Н. Порфириева. – СПб.: Изд-во «МБИ», 2018. – 327 с. [ge.pdf\(ibispb.ru\)](http://ge.pdf(ibispb.ru))

⁵ UNFCCC, 2015 [UNFCCC_report.pdf\(thegef.org\)](http://UNFCCC_report.pdf(thegef.org))

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yevropa Ittifoqi ⁶	Barqaror moliya atrof-muhitga bosimni kamaytiradigan va ijtimoiy va boshqaruv jihatlarini hisobga olgan holda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi moliya deb ta'riflanadi. Barqaror moliya moliyaviy tizimga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillari bilan bog'liq xavflarning shaffofligini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u moliyaviy va korporativ sub'ektlarning tegishli boshqaruvi orqali bunday risklarni yumshatishni ham o'z ichiga oladi.
Germaniya Hukumati ⁷	Yashil moliya moliya sektorini past uglerod emissiyasi va resurslardan samarali foydalanish bilan tavsiflangan iqtisodiyotlarga o'tishga integratsiyalashga qaratilgan strategik sa'y-harakatlarni ifodalaydi. Shuningdek, u iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarga moslashishga qaratilgan tashabbuslarni o'z ichiga oladi.
Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ⁸	Yashil moliya bir vaqtning o'zida ifloslanish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish yoki boshqa chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan moliyaviy mexanizmlarni o'z ichiga oladi.
Shveytsariya Federal atrof-muhit vazirligi	Barqaror moliya bir qator moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni o'z ichiga oladi, ular atrof-muhit, ijtimoiy va hukumat (ESG) nuqtai nazarlarini risklarni boshqarish va qarorlar qabul qilish jarayonlari bo'ylab birlashtiradi. Ushbu

⁶ https://ec.europa.eu/info/business-economy-euro/banking-and-finance/sustainable-finance/overview-sustainablefinance_en

⁷ BMZ and GIZ (international cooperation), http://www.greengrowthknowledge.org/sites/default/files/downloads/resource/Green_finance_GIZ.pdf, https://www.bmz.de/en/what_we_do/issues/wirtschaft/nachhaltige_wirtschaftsentwicklung/finanzsystementwicklung/green_finance/index.html

⁸ Green Finance and Investment http://www.oecd-ilibrary.org/environment/green-finance-and-investment_24090344.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

	takliflar ekologik, ijtimoiy va hukumat jihatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mas'uliyatli investitsiyalarni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan.
Global Barqaror Investitsiyalar Alyansi ⁹	Barqaror investitsiyalar portfeli tanlash va boshqarish jarayonida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini hisobga oladigan investitsiya strategiyasi sifatida tavsiflanadi.
Xalqaro taraqqiyot moliya klubi	Yashil moliya moliyaviy investitsiyalarni barqaror rivojlanish loyihalari va tashabbuslari, ekologik mahsulotlar va yanada barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradigan siyosatlarga yo'naltirish sifatida tavsiflanishi mumkin.

D.Kanneman, P.Krugman, K.Perez, M.Spens va N.Sternlarning tadqiqotlarida yashil omil iqtisodiy komplekslarning ham global, ham milliy darajasida moliyaviy va real sektorlar rivojlanishida asosiy rol o'ynashi kerakligini ta'kidlaydi¹⁰.

Iqlim o'zgarishi va uning kuzatilishi mumkin mavjud iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarda sezilarli o'zgarishlar zarurligini ta'kidlaydi, iqtisodchi olim Friesenbichler o'z tadqiqotida. Olimlar Altenburg va Rodrik bu muammoni ikki xil deb ta'riflaydilar: bunda yashil moliya doimiy farovonlikni ta'minlagan holda issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirishga mos keladigan tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu muammoni hal qilish nafaqat maqsadli iqlim siyosatini, balki dekarbonizatsiyalangan iqtisodiyotga erishish ko'p qirrali harakat ekanligini hisobga olsak, barcha siyosat sohalarida iqlim masalalarini integratsiyalashni ham talab qiladi¹¹.

Yashil moliya chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va iqlim maqsadlariga erishishda asosiy vositachi sifatida tobora e'tirof etilmoqda. Mark

⁹ Global Sustainable Investment Association (2014). Global Sustainable Investment Review. http://www.gsi-alliance.org/wp-content/uploads/2015/02/GSIA_Review_download.pdf

¹⁰ Прудникова А. А. Зеленое финансирование для достижения целей устойчивого развития: совре менное состояние и перспективы. Экономика. Налоги. Право. 2023;16(3):16-23. Doi: 10.26794/1999-849x-2023-16 3-16-23.

¹¹ Ситник А. А. «Зеленые» финансы: понятие и система // Актуальные проблемы россий ского права. — 2022. — Т. 17. — № 2. — С. 63–80. — DOI: 10.17803/1994-1471.2022.135.2.063-080.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Karnining 2015 yildagi "Iqlim o'zgarishi - ufqning fojiasi" degan ta'kidlashi odatda qaror qabul qilish jarayonlarida ko'rib chiqiladigan vaqt oralig'i va iqlim o'zgarishi oqibatlari, bиринчи navbatda, kelajak avlodlarga ta'sir qiladigan vaqt oralig'idagi nomuvofiqlikni ta'kidlaydi. Binobarin, iqlim o'zgarishi natijasida moliyaviy barqarorlik uchun xavflar samarali choralar ni amalga oshirish uchun juda kech bo'lganda namoyon bo'lishi mumkin.

Qisqa muddatda ko'zga ko'rinaradigan yutuqlarga erishgan biznes amaliyotlari ko'pincha tegishli ilmiy fikrlarni hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yondashuvini e'tiborsiz qoldiruvchi iqtisodni rag'batlantiradi, deb e'tirof qiladi Avstriyalik iqtisodchilari Daniela Kletzan-Slamanig va Angela Köppel¹². Buzg'unchi o'zgarishlar sharoitida texnologik taraqqiyot bilan bog'liq noaniqlik past uglerodli texnologiyalarga sarmoya kiritishga to'sqinlik qiladi va texnologik blokirovka ta'siri xavfini oshiradi.

"Barqaror va yashil moliyalashtirish tashabbuslarini rivojlantirish iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan investitsion bo'shliqni hal qilish bilan chambarchas bog'liq", deydi olimlar Michel Cardona va Maria Berenguer¹³.

Moliya sektori me'yoriy-huquqiy bazalari barqaror investitsiyalar va iqlimni moliyalashtirishga xususiy kapital oqimini safarbar qilishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Iqlim-xavfni baholashni moliya institutlari faoliyatiga integratsiya qilish juda muhim, chunki sektor hozirda Parij kelishuvi maqsadlariga mos kelmaydi. Cochran va Pauthier¹⁴ Ular moliya sektoridagi o'zgarishlarni amalga oshirish va umumiy moliyaviy oqimlarda yashil moliya ulushini oshirish uchun yashil obligatsiyalar va oshkor qilish qoidalari kabi tartibga solish choralar ni va rag'batlarining kombinatsiyasini taklif qiladi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini qo'llashni rag'batlantirishning

¹² The Evolution of the Green Finance Agenda – Institutional Anchoring and a Survey-based Assessment for Austria Daniela Kletzan-Slamanig Angela Köppel. WIFO Working Papers 640/2021 December 2021. P-21-25.

¹³ Michel Cardona | Maria Eduarda Berenguer. What role for financial regulation to help the low-carbon transition? Paris, 2020. P-15-17.

¹⁴ Boosting EU climate finance: Mitigate more without neglecting adaptation in poorer countries By Pamella Ahairwe and San Bilal Policy Brief | December 2019. P-8-12.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qo'shimcha mexanizmi xususiy investorlar tomonidan infratuzilmani yaratish bilan bog'liq bo'lgan tarqalish ta'siridan kelib chiqadigan qo'shimcha soliq tushumlaridan foydalanish va qaytarishni o'z ichiga oladi. Bir qator ilmiy ishlar, jumladan Yoshino va Tagizade-Hesarining 2017 va 2018 yillardagi ishlari yashil energiya loyihibalarining turli sohalarga va mintaqaviy YaIMga ta'sirini o'rgandi. Mamlakatlar qayta tiklanadigan energiya tashabbuslarini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha vositasi sifatida xususiy sektor investorlariga ushbu oshirilgan soliq tushumlarini qisman yoki to'liq qaytarishni ko'rib chiqishi mumkin¹⁵.

Yashil moliya kompleks yondashuvlar va yechimlarga yo'l ochishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u tabiat, iqtisodiyot va ijtimoiy soha bilan bog'liq ko'plab masalalar va jarayonlarni birlashtiradi. Ushbu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy kapitalning o'zaro ta'siri bilan bog'liq barcha hodisa va jarayonlarni o'lchashning xarajatlar shakllariga aylantirishdir.

2016-yilning 23-24-iyul kunlari Xitoyning Chengdu shahrida G20 moliya vazirlari va Markaziy bank rahbarlari uchinchi yig'ilishga yig'ilib, Xanchjou shahrida bo'lib o'tadigan G20 sammiti oldidan yakuniy Communiquéni e'lon qildi. Ushbu uchrashuvning diqqatga sazovor jihatni birinchi marta G20 kun tartibiga yashil moliyaning kiritilishi bo'ldi. Xitoyning G20 raisligi boshchiligidagi tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) kotibiyyati ko'magida Xitoy va Buyuk Britaniya hamraisi bo'lgan G20 Yashil moliyani o'rGANISH guruhini (GFSG) tashkil etishga olib keldi.

G20 a'zosi bo'lgan barcha davlatlarning 80 dan ortiq vakillari aniq strategik siyosat signallari va asoslarini taqdim etish, yashil moliyalashtirish uchun ixtiyoriy tamoyillarni ma'qullash, salohiyatni oshirish uchun o'quv tarmoqlarini kengaytirish, yashil obligatsiyalarga transchegaraviy sarmoya kiritish uchun xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish muhimligini alohida ta'kidlaydi.

Yashil iqtisodiyotni o'rGANISHDA nafaqat xorijiy olimlarning izlanishlari, balki, mamlakatimiz olimlarining izlanishlari ham benihoya muhim. Mamlakatimiz

¹⁵ ADBI Working Paper Series. Dina Azhgaliyeva, Zhanna Kapsaplyamova, and Linda Low No. 861 August 2018.
IMPLICATIONS OF FISCAL AND FINANCIAL POLICIES FOR UNLOCKING GREEN FINANCE AND GREEN INVESTMENT
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

iqtisodchi olimlari A.V.Vahobov va Sh.X.Xajibakiyevlarning¹⁶ hamda M.T.Asqarova, J.J.Jamolov va X.S.Xadjayevlar yashil iqtisodiyot konsepsiyasini quyidagicha ta'riflaydi: “Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslarni tejashga yo'naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g'oyalarni qamrab oladi”.

Olimalardan S.N.Xashimova “yashil iqtisodiyot”da moliyaviy mexanizmni raqamlashtirish dolzarbligiga urg'u bersa, N.K.Komilova mamlakatimiz geografik sharoiti uchun xos bo'lgan lokal xususiyatlarni hisobga olish, bunda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, atrof-muhit musaffoligini saqlab qolish va aholi salomatligini mustahkamlash singari yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratgan¹⁷.

Tadqiqotchi olimlardan Z.A.Abdullayev, A.D.Anarkulov, B.B.Valiyev, I.T.Yermatov hamda I.A.Nosirovlar yashil iqtisodiyotga o'tish va rivojlantirishda yashil texnologiyalarga investisiyalar jalb qilishni fiskal mexanizmlar orqali rag'batlantirish, milliy manfaatlarga mos keladigan soliq imtiyozlari tizimini yaratish ustuvor vazifalardan deb hisoblaydi. Shuningdek, O. Astanakulov va X. Asatulaevlar keljakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan atrof-muhit va ekologik muammolar xavfini oldini olishda “yashil” moliyalashtirish manbalaridan oqilona foydalanish va ushbu muammolarni bartaraf etishda investitsiyalarning ahamiyatini ta'kidlashadi¹⁸.

B.Q.Mamatov o'z ilmiy ishlarida “yashil” iqtisodiyotga o'tishda chiqindilarni qayta ishslashning ahamiyati, uni moliyalashtirishning dolzarbligini baholaydi. Shuningdek olim Farhod Yo'ldoshev O'zbekistonda yashil transport tizimining texnologik rivojlanish masalasiga e'tibor qaratib, yashil transport tizimiga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va bu borada kelgusidagi

¹⁶ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil iqtisodiyot” darslik. Toshkent: “Zebo print”, 2021-y 75-b.

¹⁷ N.K.Komilova “Yashil iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishning xorij tajribasi: nazariya, amaliyat”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, dekabr. №12-son. 1023-1028b.

¹⁸ Jahon iqtisodiyotiga integrallashuv sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari: xalqaro tajriba, nazariya va amaliyot xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislар to'plami, 20-dekabr 2024 yil.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

rivojlanish istiqbollari batafsil tahlil qilgan¹⁹.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Iqtisodchi olim E. I. Nosirov “Ilg’or xorijiy davlatlar tajribasiga tayangan holda mamlakatimizda “yashil” moliyalashtirishni qo’llab-quvvatlash va bu jarayonga xususiy investorlarni faol jalg qilish maqsadida “Toshkent” respublika fond birjasida “yashil” obligatsiyalar bilan savdo-sotiq qiluvchi alohida bo’limni tashkil etish maqsadga muvofiq. Buning uchun avvalo, tegishli qonun va qonun osti hujjatlariga “yashil” obligatsiyalar tushunchasi, uning turlari va tamoyillariga aniqlik kiritish, so’ngra fond birjasida “yashil” obligatsiyalar bilan savdo-sotiq uchun zarur ekotizimni yaratish zarur – deb hisoblaydi”²⁰.

S.Elmirzaev, N.Shavkatov "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining ahamiyatli jihatlariga e’tibor qaratgan. Yashil moliyalashtirish ko’lamini oshirish yashil iqtisodiyotga o’tishning jadallashuviga xizmat qiladi. Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzlucksiz ta’minalash hamda "yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirishini tadqiq etgan²¹.

Yashil moliyanı ikki nuqtai nazardan S.Polatova o‘z ilmiy ishida ko’rib chiqqan. Birinchidan: yashil moliya bir vaqtning o’zida moliya sanoatini rivojlantirish, atrof-muhitni yaxshilash va iqtisodiy o’sishni ta’minlaydigan kelajakka yo’naltirilgan moliyalashtirishning bir turidir. Ikkinchidan esa: yashil moliya - bu ekologik manfaatlarga va kengroq ma’noda ekologik barqarorlikni rivojlantirishga hissa qo’shadigan sarmoyadir²².

Barcha o’rganilgan fikr, mulohazalardan kelib chiqib umumlashtirilgan va olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni o’rganish natijasida Yashi moliya atamasiga quyidagicha ta’rif beramiz, ya’ni “*Yashil moliya moliya sektorini past uglerodli va resurslarni tejaydigan iqtisodlarga o’tishga, xususan, iqlim o’zgarishiga*

¹⁹ F.A.Yuldashev “O’zbekstonda yashil transport tizimiga o’tish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va rivojlantirishning istiqbollari”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024-yil, dekabr. №12-son. 116-119b.

²⁰ E.I.Nosirov ““Yashil” obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari”. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2023-yil, oktyabr. №10-son. 40-45b.

²¹ Элмирзаев Самариддин, Шавкатов Наврузбек “Яшил” иқтисодиётни ривожлантиришда давлатхусусий шериклик механизmlаридан фойдаланиш масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2023. №7 (167).

²² Po’latova, S. (2023). Yashil moliya tushunchasi va uning xalqaro moliya tizimidagi o'rni. В ZDIFT (Т. 2, Выпук 21, сс. 97–99). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10073940>.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

moslashish doirasida integratsiyalash uchun strategik asosni o'z ichiga oladi". Bunda "Yashil" va "Moliya" tushunchalarining jipslashuvini yaqqol aksini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda O'zbekistonda energiyaga bo'lgan talabning ortishi va energiya narxlarining doimiy oshib borishi yashil energetikani rivojlantirish zaruratini yanada oshiradi. Bunda albatta moliyalashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jahon moliya tizimida taraqqiyotga erishishda "yashil" moliyaning globallashuvi global islohotlar bilan muvofiqlashgan ob'ektiv jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonning o'ziga xosligi "yashil" moliyaviy vositalar orqali global bozorni shakllantirish va rivojlanayotgan bozorlarga ega mamlakatlarning innovatsion tashabbuslari bilan boyitilgan milliy amaliyotlarni qamrab olishidadir.

Davlat tomonidan "yashil" moliyalashtirish vositalari orqali taraqqiyotni tartibga solish va muvozanatni ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlarni mamlakatimoz tomonidan qo'llab quvvatlash talab qilinadi. Bunda:

- mahalliy mutaxassislarni qo'llab quvvatlash, yoshlarda ushbu kasbga qiziqishini ortirish bo'yicha targ'ibotni kuchaytirish kerak;

- Yashil iqtisodiyot yo'nalishi bo'yicha kadr-mutaxassislarni tayyorlash maqsadida oliy ta'lim muassasalarida "yashil iqtisodiyot" ta'lim yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni qisqartirilgan uch yillik bosqichda tayyorlash tizimini amaliyotga joriy etish lozim. Bunda davlat grantlari asosida o'qitish sonini ko'paytirish maqsadga muvofiq.

"Yashil iqtisodiyot" bo'yicha kadrlar tayyorlash va malaka oshirishni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- oliy ta'lim muassasalarida "yashil iqtisodiyot" bo'yicha maxsus yo'nalishlar va mutaxassisliklar ochish, mavjud o'quv dasturlariga ekologik fanlarni kiritish;

- yetakchi xorijiy universitetlar va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish, almashinuv dasturlarini tashkil etish;

- "Yashil iqtisodiyot" sohasida ilmiy izlanishlarni rag'batlantirish, grantlar ajratish va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- ishlab chiqarishda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun "yashil iqtisodiyot" bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish.